

USTOZLARIM-HAYOT YO'LLARIMNI YORITUVCHI MASH'ALIM!

Mamarasulova Muxlisa

Sirdaryo viloyati, Guliston shahar "Ideal Study"

xususiy maktabining 8-sinf o'quvchisi

O'qituvchilar- inson hayoti uchun bilim va tarbiya beruvchi eng muxim insonlardandir. Har bir shaxsning hayotida ustoz, hayot so'qmoqlarida yo'l ko'satuvchi murabbiysi bo'ladi. Xoh uning hayot saboqlarini beruvchi buvasi bo'lsin, xoh ta'lim beruvchi murabbiysi. Insonning hayot so'qmoqlaridan o'tishga yordam beradigan, uni har taraflama mukammal va o'z hayot yo'llarida adashgan va qilgan xatolarini takrorlamaslik uchun jonini fido qilguvchi jonkuyar shaxslar- bu ustozlar bo'ladi.. Har bir kishi uning ta'limiga va saboqlariga tayangan holda hayotning ilk va eng muhim saboqlarini olish bilan o'z hayot yo'llarini quradi va shu tahlidda o'z dunyoqarashini shakllantiradi. Hozirda ko'p yoshlar orasida noto'g'ri tushuncha mavjud. Ya'ni ustozlar faqat fan ta'limini berishadi? Ha, balki bu tushuncha sizda ham bordir. Keling, shuni kengroq ko'rib chiqamiz. Ustozlari o'zi kim? Ulardan qanday saboq olamiz? Hozirda ustozlarning qadri qanchalik muhim?

Shunday zamonda ustozlarning o'rnini sun'iy intellekt, ya'ni robotlar egallab olmoqda. Ammo bularning hech qaysi qadr- qimmatini baland bo'lgan ustozlarimizni o'rnini bosa olmaydi. Axir biz ustozlardan nafaqat bilim, balki mehr- muruvvat, hayotiy maslahat olamiz, ular bizni doim oldinga undab turuvchi katta kuchdir. Tushkunlikka tushgan paytimiz esa bizni qo'llab- quvvatlovchi ham bizni u holatdan olib chiquvchi ham aziz murabbiylarimiz bo'ladi. Shuning uchun ham har doim biron-bir yangilik qilishga, qarorlar chiqarishga ikkilanmay o'zimizda kuch topa olamiz. u harakatning boshlanishida ustozlarimizning o'g'itlari, ishonchlari va ,albatta, bergan bilimlari qo'l keladi.

Ustozlar o'zlarining umrlarini shogirdlarining istiqbollari uchun bahshida qilishadi. Atrofni yoritaman, nur beraman deb o'zi tugab borgan sham misoli ustozlar ham, shogirdlarini ulg'aytirgani, kamol toptirgani sayin umrning eng totli damarini yo'qotib borishadi. Balki, shuning uchun ham ustozning mehnatini hech qanday ta'rif bilan ayta olish mushkuldir. Aslini olganda ham bu so'z fors tilidagi "ustod" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bilim beruvchi shaxsga nisbatan hurmat ifodasidir. Yani bilim har xil bo'lishi mumkin. Jumladan, hayotiy bilim, sport bilimi ,fan hamda tarbiya va hokazo . Hozirda ustozlarning qadr-u qimmatiga kelsak, bu zarracha ham o'zgargani yo'q. Inson biror narsa keraksiz bo'lib qolgandan keyin uni tark etadi. Ya'ni o'zbek maqoli bilan aytilganidek, "Ko'r inson ko'rishni boshlaganda hassasidan voz kechadi" Shunday bo'lsa ham biz esa har doim ustozlarga suyanib qolaveramiz va bilim dunyosidagi va hayotdagi ko'rolmaydigan narsalarimizni bizga bebaho ustozlarimiz

ko'rsatadi. Zero, bizga ta'lim-tarbiya berganlarining haqini hech qanday boylikning o'lchovi bilan uza olmaymiz.

Ustozlar haqida so'z borar ekan buyuk ustoz shoirlarimizning ular sha'niga aytilgan bitiklari beixtiyor hayolimdan o'tadi:

Buyuk ustoz mavlono abdurahmon Jomiy :

“Jahonda bo'lmasa muallim agar,
Hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar”.

Hazrat Alisher Navoiy:

“ Haq yolida kim sanga harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila”.

Inson muvaffaqiyatga erishishi, vjamiyatda obro'-e'tiborga ega bo'lishi uchun Ustoz degan nomni unutmazlik kerak. Hayot yo'llarining har bir chizig'ida ustozning hissasi borligini yodda tutmoqlik zarur. Bir so'z bilan aytganda ustoz-hayot yo'llarini yorituvchi mash'aladir. Minglab shogirdlarning mash'aliga aylangan Guliston shahrida joylashgan “IDEAL STUDY” ustozlarimga tashakkurlar aytaman. Shu onda to'lib-toshgan qalb qo'rim bilan ahd tuzaman, so'z beraman. Ideal ustozlarimning –Ideal shogirdi bo'laman! Har bir bergan bilimingizning bir tomchisini ham uvol qilmasdan faqat va faqat olg'a intilaman. Bu ahdnoma kelajakdagi bir olim qizning buyuk ishlari uchun qo'yilgan qadamlardan biri bo'lajak! Sizga doim ta'zimdamiz, hurmatdamiz-Aziz, ustozlarim!